

SHASHMAQOM TURKUMIDAN SARAXBORI DUGOH

Mashrabova Muxlisa

Andijon Davlat Universiteti
San'atshunoslik fakulteti Musiqiy -
ta'lim kafedrası vokal san'ati
(an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishi
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'n ikki maqom va ushbu maqom negizida tashkil togan shashmaqom hamda uning tarixi, shashmaqom tarkibiga kiruvchi Saraxbori dugoh va uning, taronlari haqida

Kalit so'zlar: O'n ikki maqom, saraxbor, shashmaqom, parda, tarix, usul.

Shashmaqom (fors. — olti va maqom) — o'zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmuyi. U muayyan shart-sharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo'nalishlarida orttirilgan ko'p asrlik ilmiy ijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an'alarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san'atining qomusiy mahsulidir. O'rta asr yaqin va o'rta sharq xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan kuy va ashulalarni ifodalaydi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, 13-asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. 17-asrdan so'ng o'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, 18-asrning o'rtalarida o'rta osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiy-ijrochilik faoliyatida Shashmaqom uzil-kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O'zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko'rinishdagi) maqomlar, surnay, dutor yo'llari va boshqalar shashmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorligida keng qo'llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari shashmaqom tarkibida bizgacha yetib keldi.

Shashmaqom. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan iborat. Shu kunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom

yo'llarining ko'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqalar maqom yo'llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar. Maqomlar sozanda va xonandalar tomonidan yakka tarzda, shuningdek, jo'rovoqlik va jo'rnavozlikda ijro etib kelingan. Xususan, Buxoro amirlari saroyida eng so'nggi davrda jo'rnavozlik asosan, 2 tanbur, 2 doira (doirachilar xonanda ham bo'lgan), afg'on rubobi, Sato yoki qo'biz, imkonga ko'ra bo'lamon cholg'ularidan iborat bo'lgan Maqom ijrochiligida tanbur yetakchi soz hisoblanadi. Chunki u torlarini maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo'llarini mukammal yangratishda birmuncha qulayliklarga ega. Doira esa sozanda va xonandalarning shashmaqom qismlarini belgilangan usul negizida ijro etishlari uchun zarur vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir maqomning bosh tovushqatori o'ziga xos va nisbatan barqaror bo'lib, turkumning to'liq musiqiy ijro jarayonida uning pardalarida ayrim o'zgarishlar ham sodir bo'lib turadi. Chunki Shashmaqom shakllanishida maqomlar tarkibiga o'n ikki maqomdan mazkur maqom pardalariga yaqin, kuy mavzusi tabiatiga ohangdosh o'zga sho'ba va maqom yo'llari ham kiritilgan. Ularning lad tonalligi asosiy maqom yo'llariga ba'zan mos kelmasligini ham ko'rishimiz mumkin.

Shashmaqom tarkibidagi to'rtinchi maqom dugoh deb ataladi. Dugoh so'zi ikki o'rin va ikki joy degan ma'nolarni anglatadi. O'rta asr musiqi risolalarida o'n ikki maqom risolalariga kirgan xusayniy maqom sho'balaidan biri bo'lib, nazariy jihatdan u butun to'n oralig'idagi ikkita pardani ifodalagan. Musiqi amaliyoti tajribalaridan ma'lumki, sharq musiqasida ikki parda chegarasida ijro qilinadigan ashulalar umuman uchramaydi. Bu o'rinda o'tmishda yashab ijod etgan musiqi olimlari butun oralig'idagi pardalarni hisobga olgan bo'lsalar kerak. Dugohning musiqi risolalaridagi butun ton oralig'idagi ikki pog'onali tovushlar birikmasi deb ko'rsatilishi musiqi asarlarining diapazonini ko'rsatmaydi, balki ular boshlanishidagi ikki pardani ifodalaydi.

Shashmaqom tarkibida dugoh mustaqil maqom bo'lib, o'tmishdagi sho'ba mavqeyini butunlay yo'qotgan. Shashmaqomda dugoh maqomiga chorgoh, oraz va husayniy ohanglari hamda ularning pardasiga mos kuy – ohanglari asosiy kuy mazvulari sifatida gavdalanadi.

Saraxbori dugoh ham kuy tuzilishi jihatdan nihoyatda murakkab bir necha qismlardan tarkib topgan. Uning bir bayt bilan o'qiladigan birinchi xati cholg'u muqaddima bilan boshlanadigan daromad qismini tashkil qiladi. U she'r matnisiz ijro etiladigan ohanglar bilan tugallanadi. Ikkinchi xat o'rta pardalarida ijro etiladigan miyonxat qismi ham she'riy matnisiz aytiladigan ohanglar bilan

ashulaning bosh pardasiga qaytib tushadi. Uchinchi xat pari avji to'rtinchi – oltinchi xatlar Muxayyari chorgoh namudi yettinchi xat tushirm qismlaridan iborat.

Saraxbori dugohni tinglaganingizda, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llariga tegishli bo'lgan Cho'li iroq ashulasida yaqin ekanligini yaqqol sezish mumkin. Uning kuy harakati pog'onama pog'ona rivojlana boradi. Saraxbori dugoh ijro etilgandan so'ng, turkum uning oltita taronasiga ulanib ketadi. Bu taronalarning tonalligi turlicha bo'lib turkum tarzida bir biriga ulanib ketadi. Ushbu taronalarning lad strukturalari, she'r matni jozibadorligi bilan shashmaqom sho'basiga yana ham boyidi. Ashula yo'llari turli mavzudagi kuylar bilan sayqal topadi.

Saraxbor – lotincha so'z bo'lib, xabarchi, bosh xabar degan ma'nolarni anglatadi. Shashmaqomning nasr bo'limini ushu saraxborlar ochib beradi. Saraxborlar maqom so'zi bilan qo'shilib, saraxbori buzruk, saraxbori rost, saraxbori navo, saraxbori dugoh, saraxbori segoh, saraxbori iroq nomlari bilan nomlanadi. Asosiy saraxborlardan tashqari dugoh maqomining ikkinchi guruh sho'balari tarkibiga saraxbori oromijon deb nomlangan sho'ba nomi ham kiradi.

Saraxborlar tarkibiy jihatdan juda murakkab bo'lib, uni ijro etuvchidan katta kuch talab etiladi. Saraxborlar ichida nisbatan yengilroq varianti saraxbori dugoh hisoblanadi. Shashmaqomning boshqa sho'balari singari saraxborlarda ham bir nechta namudlar uchraydi. Saraxbori dugohda zebo pari avji va namudi muxayyari uchraydi. Saraxbori dugohning oltita mustaqil taronlari mavjud. Saraxbori dugoh Navoiy g'azali bilan ijro etilib, takt o'lchovi 2/4 hisoblanadi. Dugohning II, III, IV, V taronalarida doira usuli $\frac{3}{4}$ takt-ritmini xosil qilsa, VI taronasi esa talqincha usulda turlicha zarb birliklari bilan ijro etiladi.

Shashmaqomning ajoyib durdonalari milliy mumtoz asarlarimizni o'rganishda muhim omil bo'la oladi. Ular yangi asarlari yaratilishida bitmas tunganmas manba hisoblanadi. Shashmaqom ashula bo'limining bosh va asosiy sho'balari asosida yaratilgan ikkinchi guruh sho'balari bastakorlar tomonidan ijodiy ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Ibrohimov. Maqom asoslari Toshkent 2018
2. I.Rajabov. Maqom asoslari (oliy ta'lim talabalari uchun o'quv qo'llanma) Toshkent 1992
3. R.Yunusov. O'zbek maqomlari Toshkent 2018
4. I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir Toshkent 1963
5. B.Madrimov. O'zbek musiqasi tarixi Toshkent 2018.